

KOGNITIV VA KREATIV SIFATLARNING ADABIY TA'LIMDAGI O'RNI

Tursunboyeva Muattar Ikromjon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti
muattartursunboyeva00@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358631>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlantirishning metodik asoslari tadqiq etiladi. Badiiy matn tahlili orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot yakunida zamonaviy darsliklar va dars jarayonini kognitivlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv xususiyat, kreativ fikrlash, badiiy matn, metodik rivojlantirish, resurs.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические основы развития познавательных и творческих качеств учащихся в процессе литературного образования. Посредством анализа художественного текста научно обосновываются возможности активизации логического мышления и творческого потенциала читателей. В конце исследования были представлены современные учебники и практические предложения по когнитивизации учебного процесса.

Ключевые слова: когнитивная черта, творческое мышление, художественный текст, методическая разработка, ресурс.

Abstract. This article explores the methodological foundations of the development of cognitive and creative qualities of students in the process of literary education. Through the analysis of artistic text, the possibilities of enhancing the logical thinking and creative potential of readers are scientifically substantiated. At the end of the study, modern textbooks and practical proposals for cognitivism of the course process were put forward.

Keywords: cognitive trait, creative thinking, artistic text, methodological development, resource.

Kirish. Zamonaviy antropotsentrik ta'lim paradigmasida badiiy adabiyot o'qitishning mohiyati shunchaki estetik axborot uzatish emas, balki shaxsning intellektual arxitekturasi qayta qurish va uning kognitiv-kreativ salohiyatini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etilmoqda. Bugungi kunda jahon ta'lim maydonida, xususan, O'zbekistonning ta'lim strategiyasida o'quvchi tafakkurini "reproduktiv axborot almashinuvi"dan "kreativ ma'no yaratish" bosqichiga o'tkazish dolzarb vazifaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitobxonlik va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga oid konseptual fikrlari zamirida ham aynan matn orqali mustaqil va tahliliy mushohada yurituvchi avlodni voyaga yetkazish g'oyasi yotadi. Binobarin, adabiy ta'lim – inson kapitalining kognitiv resurslarini boyituvchi asosiy platformadir.

Kognitiv sifatlar deganda, o'quvchining badiiy matnni idrok etishi, undagi simvolik kodlarni dekodlashi va asar mazmunini o'zining mental tajribasi bilan sintez qila olish qobiliyati tushuniladi. Kreativ sifatlar esa ushbu jarayonning mantiqiy davomi bo'lib, olingan bilimlarni yangi, kutilmagan g'oyalar shaklida namoyon etishni, matn ostidagi

yashirin qatlamlardan original talqinlar chiqarishni anglatadi. Adabiyot darslarida ushbu ikki sifatning uyg'unligi o'quvchida nafaqat adabiy didni, balki murakkab tizimli axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Biroq, metodik kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy darslarda o'quvchining kognitiv imkoniyatlari ko'pincha matn syujetini eslab qolish darajasi bilan cheklanib qolmoqda. Kreativlik esa darsning ikkinchi darajali elementi sifatida ko'rilmogda. Vaholanki, kognitiv poetika va zamonaviy didaktika talablariga ko'ra, o'quvchi matn tahlili jarayonida faol subyektga aylanishi, muallif bilan "intellektual muloqot"ga kirishishi shart. Ushbu tadqiqotning maqsadi — adabiy ta'limda kognitiv va kreativ sifatlarning o'zaro deterministik bog'liqligini asoslash hamda ularni tizimli rivojlantirishning metodik modellarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy ta'limda kognitiv va kreativ sifatlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikada "faol kitobxon" konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy matn shunchaki ma'lumotlar yig'indisi emas, balki o'quvchini intellektual harakatga keltiruvchi murakkab tizimdir.

Xususan, matn tahlili nazariyasida "o'quvchi javobi" yo'nalishi vakillari Wolfgang Izer va boshqalar asardagi "bo'shliqlar" (gapirilmagan, yashirin qolgan o'rinlar) haqida yozadilar. Ularning fikricha, matndagi mana shu bo'shliqlarni o'quvchi o'z tasavvuri bilan to'ldirishi uning kreativ qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Ya'ni, asar o'quvchiga hamma narsani tayyor holda bermasligi kerak; qanchalik ko'p savol ochiq qolsa, o'quvchining kognitiv faolligi shunchalik oshadi.

Shuningdek, kognitiv poetika sohasidagi yana bir izlanish Stokvell tomonidan olib borilgan. U badiiy obrazlarning inson xotirasida qanday "xarita" hosil qilishini o'rganadi. Bu tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, o'quvchi asar qahramonini tasavvur qilayotganda, uning miyasida hayotiy tajribalar bilan bog'liq yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Bu jarayon o'quvchidan nafaqat diqqatni, balki voqealarni oldindan bashorat qilish kabi murakkab kognitiv ko'nikmalarni talab etadi.

Milliy metodikamizda ham bu borada yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Masalan, adabiyotshunos olimlarimiz asarni tahlil qilishda "savol qo'yish san'ati"ga alohida urg'u berishmoqda. Agar o'qituvchi darsda o'quvchiga "Qahramon nega bunday yo'l tutdi?" deb emas, "Siz uning o'rnida bo'lganingizda qanday yechim topardingiz?" degan muammoli vaziyatni ko'ndalang qo'ysa, bu o'quvchining ham mantiqiy, ham ijodiy sifatlarini baravar qo'zg'atadi.

Keyingi yillardagi ilmiy maqola va dissertatsiyalarda "kreativ fikrlash" tushunchasi ko'pincha "tanqidiy fikrlash" bilan yonma-yon qo'llanmoqda.

Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, kognitiv sifatlarni matnni to'g'ri anglash va tahlil qilishga xizmat qilsa, kreativlik ana shu tahlil asosida yangi g'oya yoki shaxsiy yondashuvni o'rta tashlashga yordam beradi. Demak, adabiy ta'limning asosi sifatida

o'quvchining matni "shifrlash" va "qayta yaratish" qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlantirish uchun "tizimli-funksional tahlil" hamda "kognitiv modellashtirish" metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni faqatgina nazariy xulosalar yasash bilan cheklanib qolmay, bevosita o'quvchi tafakkurining amaldagi o'zgarishlarini kuzatishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Interpretativ tahlil metodi: O'quvchilarga badiiy matn berilganda, ulardan nafaqat mazmuni tushunish, balki muallif qo'llagan detallarning vazifasini aniqlash so'raldi. Bunda "kognitiv xaritalash" usulidan foydalanildi. O'quvchilar matndagi markaziy tushunchalarni (masalan, qahramonning ichki kechinmasi yoki ramziy ob'ektlar) aniqlab, ularning o'zaro bog'liqligini grafik shaklda chizishdi. Bu usul o'quvchining mantiqiy zanjirlarni qurish qobiliyatini tekshirish imkonini berdi.

Kreativ muammolarni modellashtirish: Dars jarayonida "evristik suhbat" metodikasidan keng foydalanildi. Bunda o'quvchilarga matnning kulminatsiya nuqtasida to'xtab, "Agar voqealar teskari yo'nalishda rivojlansa, asar qanday yakun topishi mumkin edi?" kabi ochiq savollar berildi. Bu uslub o'quvchilarni tayyor qoliplardan chiqishga va o'zining mustaqil ssenariysini yaratishga majbur qildi.


Tahlillar va natijalar. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi:

1. Matni chuqur tushunish va interpretatsiya darajasining o'sishi:

Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning badiiy matndagi yashirin ma'nolarni ilg'ab olish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Kuzatuvlarimizga ko'ra, o'quvchilar asar syujetini shunchaki qayta hikoya qilishdan ko'ra, uning qahramonlari harakatining psixologik motivlarini tahlil qilishga moyil bo'ldilar. Matn bilan ishlash bo'yicha o'tkazilgan testlarda o'quvchilarning "analitik ko'nikmalar" ko'rsatkichi tajriba guruhida boshlang'ich darajaga nisbatan 28% ga yuqorilganligi qayd etildi.

2. Kreativ g'oyalar shakllanishi va muammoli vaziyatlarni yechish:

Tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri – bu o'quvchilarda "kreativ fikrlash"ning faollashuvidir. Adabiy darslarda muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar berilganda, o'quvchilar asar syujetini o'z xohishlariga ko'ra davom ettirish, qahramonlarga yangi xususiyatlar berish yoki voqealarga boshqa nuqtai nazardan baho berishga intildilar.



Izoh: Diagrammadagi o'sish foizi tajriba boshlanishidagi ko'rsatkichlarga nisbatan hisoblangan.

3. Metakognitiv ko'nikmalarning rivojlanishi:

Kognitiv va kreativ yondashuvlar natijasida o'quvchilar o'zlarining fikrlash jarayonlarini tahlil qilish qobiliyatini ham shakllantirdilar. Dars oxirida o'tkazilgan refleksiya o'quvchilarning 60% dan ortig'i "Men matnni tahlil qilishda qaysi usuldan foydalandim?", "Qanday qilib bu xulosaga keldim?" kabi savollarga ongli ravishda javob berishga muvaffaq bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar shunchaki ma'lumotni qabul qilmay, balki uni qayta ishlashning shaxsiy strategiyalarini ishlab chiqdilar.

4. O'quvchilarning o'zaro hamkorligi va muloqot madaniyatining oshishi:

Kognitiv-kreativ darslarda guruhlarda ishlash, fikr almashish va bahs-munozaralar tashkil etilganda, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalari ham takomillashdi. Natijada, asarni tahlil qilishda turli nuqtai nazarlarni tinglash va ularni sintez qila olish qobiliyati oshdi. Bu esa bir vaqtning o'zida ham kognitiv, ham ijtimoiy-kreativ sifatlarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, olingan natijalar adabiy ta'limda kognitiv va kreativ sifatlarning uyg'un rivojlantirilishi o'quvchining nafaqat o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi ijtimoiy-kasbiy hayotdagi kompetensiyalarini ham shakllantirishini isbotladi.

Xulosa. Adabiy ta'limda o'quvchilarning kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlantirish masalasini tizimli tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi.

Birinchidan, badiiy matn tahlili shunchaki adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchining ichki intellektual salohiyatini faollashtiruvchi kognitiv jarayondir. Tadqiqot ko'rsatdiki, kognitiv sifatlarning (matnni anglash, tahlil qilish, mantiqiy zanjir qurish) mustahkam poydevor vazifasini o'tasa, kreativ sifatlarning (original talqin, muqobil yechim yaratish) ushbu poydevor ustidagi ijodiy konstruksiyadir. Ularning uyg'unligi o'quvchini passiv kitobxonidan faol mushohada yurituvchi shaxsga aylantiradi.

Ikkinchidan, metodologik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan adabiyot darslari o'quvchida "metakognitiv" ko'nikmalarini shakllantiradi. Bizning tajribamizda qo'llanilgan "evristik suhbat" va "kognitiv xaritalash" usullari o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash darajasini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa adabiy ta'limning nafaqat estetik, balki umumintellektual ahamiyatini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, xalqaro baholash standartlari (PISA) bilan milliy ta'limiy ehtiyojlarimizning uyg'unlashuvi o'quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur sifatlarini shakllantirishni talab etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, darslarda savollar formatini reproduktivlikdan kreativlikka o'zgartirish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va muammoli vaziyatlardan chiqish qobiliyatini 30% dan ko'proqqa oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Matchonov S. Adabiy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010.
6. Iser, W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978. (Matn tahlili va o'quvchi kognitivistikasi bo'yicha fundamental asar).
7. Stockwell, P. Cognitive Poetics: An Introduction. – London: Routledge, 2002. (Kognitiv poetika bo'yicha jahon standartidagi darslik).
8. De Bono, E. Lateral Thinking: Creativity Step by Step. – New York: Harper & Row, 1970. (Kreativ sifatlarni rivojlantirish metodologiyasi).
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023. (Xalqaro o'qish savodxonligi standartlari).
11. Jumayev M. Badiiy matn tahlili va talqini: monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.
12. Nazarov A. Ta'limda kognitiv yondashuv: metodik qo'llanma. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2020.
13. Tursunboyeva M.I. Adabiy ta'limda kognitiv va kreativ sifatlarning uyg'unligi. // Ilmiy xabarnoma (Scientific Bulletin). – Namangan, 2024.
14. Yusupova Sh. Zamonaviy dars tahlili: muammo va yechimlar. – Toshkent: Akademnashr, 2019.